

IMOM G‘AZZOLIY ILMIY MEROSI VA UNING  
MA’NAVIY-RUHIY ASOSI

THE SCIENTIFIC HERITAGE OF IMAM GHAZALI  
AND ITS SPIRITUAL BASIS

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ ИМАМА ГАЗАЛИ И ЕГО ДУХОВНАЯ ОСНОВА

İMAM GAZALI’NİN BİLİM MİRASI VE MANEVİ ESASLARI

**Umirzoqov G‘anisher**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali TTKT fakulteti RI 23-10 guruh talabasi

Elektron pochta manzili: [umrzoqovganisher486@gmail.com](mailto:umrzoqovganisher486@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Sharq Uyg‘onish davrining buyuk donishmandlaridan biri, diniy va dunyoviy bilimlar sohibi, tavhid, kalom, tafsir, hadis ilmining rivojiga xizmat qilgan, atoqli faylasuf Muhammad Abu Homid G‘azzoliy asarlarining mazmuni va uning ilmiy merosi tasnifi, uning "zohiriy" va "botiniy" ilmlar masalasiga munosabati, tasavvuf ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi va ko‘rsatgan ta’siri, uning ta’limotida shariat va tariqat masalasi kabi mavzular o‘z ifodasini topadi.*

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, ma’rifat, axloq, qadriyat, yuksak axloqiy fazilat, tasavvuf, shariat, tariqat, imon, aqida, sunnat, fiqh.

Yangi O‘zbekistonda allomalar ilmiy-amaliy, madaniy-ma’rifiy merosini tiklash, uni o‘rganish va keng targ‘ib qilish hamda jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini ko‘rsatib berish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgani, islom ilm-faniga

e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Jumladan, IX-XII asrda ma'naviy-axloqiy taraqqiyotida, islomning buyuk allomalardan, ulug'laridan mutafakkir Mavlono Homid Imom G'azzoliy bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida ahamiyatga ega. Shuningdek, islomiy fikr rahnamosi, diniy ruhni jonlantirishda, islom fikrini uyg'otishda katta fazilatlarga ega bo'lgan isloh va tajdid kishisidir. Mavlono Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy o'z davrining mujaddidi bo'lib, musulmon urf-odatlariga ko'ra, bu islom taqvimining har bir asrning boshida islomni qayta tiklash, uni begona predmetlardan tozalash va uning pokligini tiklash uchun xizmat qilgan shaxslarga nisbatan ishlatilgan. Shu boisdan ham G'azzoliy o'z asarlarida islom ilohiyotini falsafiy jihatdan asoslash bilan birgalikda ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalariga alohida e'tibor bergan. G'azzoliy aql bilan dunyoni anglashni, islomiy ta'lim-tarbiyani esa ruhiy, jismoniy harakatlar - toat-ibodatlar orqali anglash lozim, deb ta'kidlaydi. Muhammad al-G'azzoliyning ilmiy merosidagi ma'naviy-axloqiy qarashlari pedagogik ahamiyati beqiyosdir. Asarlarda axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlar bilan birgalikda islomiy ta'lim-tarbiya juda chiroyli bayon etilganki, uni o'rgangan har bir yosh avlod ajdodlarga mos voris bo'lib yetishadi.

Ta'lim va-tarbiya azaldan yoshlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynab kelgan diniy kitoblardan bo'lmish "Qur'oni karim", payg'ambarimizning o'gitlari, hadislar, G'azzoliy singari allomalar yaratgan asarlar ta'lim-tarbiya manba sifatida xizmat qiladi. Islomiy ta'lim-tarbiya bir necha asr oldin ta'lim muassasalarida joriy etilib, yoshlar shariat qoidalari asosida tarbiyalangan. IX- XII asrlardan boshlab Imom Buxoriy, Imom at-Termiziydan Qu'roni karim tavsiri, hadislarining mazmun mohiyatini anglagan holda o'rgashishga harakat qilganlar, keyinchalik G'azzoliy ham o'zining asarlarida islomiy ta'lim-tarbiyaning muhim jihatlarini ochib berib, dunyoni diniy va ilmiy jihatdan anglashga, tarbiyaviy jihatdan avlodlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslagan. G'azzoliy "Haqiqatga eltuvchi yo'l" nomli asarida o'zini ilmga bag'ishlagan haqiqat tolibi sifatida o'z hayot hikoyasini bayon etadi va barcha toliblariga o'z yo'lidan adashmaslikni hamda zamonning alodovlariga aldanib

qolmaslikni, hushyor bo'lishni maslahat bergan. G'azzoliy Qur'on va sunnatning intellektual va ma'naviy dunyosida yashagan. U o'z hissalarini bilan din olimlari jamiyatini boyitdi. G'azzoliydagi ilmning turli sohalarini birlashtirishdagi qobiliyati faqatgina uning shaxsiy hunarining emas, ayni paytda bir faylasuf va olim sifatida ulg'ayishiga imkon bergan intellektual-ma'naviy iqlimning ham ta'siridir. G'azzoliy ilmni eng ustun fazilat deb hisoblaydi. U ilmga ega bo'lganlar katta hurmat ko'rgan madaniy muhitda yetishgan. Shubhasiz, bu holat Qur'onning ilmga bergan ahamiyatidan kelib chiqadi. G'azzoliyning asarlarining asosida Qur'oni tavsiri bayon etilgan.[1.-B2]

G'azzoliy zohiriy va botiniy ilmlar o'rtasidagi munosabatni asarning «Ilmi zohir birla ilmi botin orasidagi munosabat va muxolifat bayonida» nomli faslida quyidagicha izohlab beradi: «Bas, zohir ilmi po'st va haqiqat ilmi - mag'izdur. Bas, kshikim sa'y va jadal birla zohir ilmi va aqidai ahli sunnat va jamoani yo'liga keltiribdur va ilmi haqiqatdin nasiba topmabdur. U pindor, ya'ni takabburlik bilan gumon qilurkim, hamma ilm mening bilganimdur deb.[1.-B3]

G'azzoliy oldin ilmni shariat ilmlari va g'ayrishariat ilmlari deb ikkiga bo'lgan edi. G'ayri shariat (noshariat) ilmlarining bir qismini to'g'ri deb hisoblagan edi. Masalan, tibbiyot, matematika va shunga o'xshash dunyoviy fanlarkim, yashash uchun ko'p hollarda zarurdir. Sehrgarlik va shomonlik kabi ikkinchi qism ilmlarna u islomga zid mashg'ulot deb tanqid ostiga oladi.

Biroq G'azzoliy tushuntirmoqchi bo'lgan shariat ilmlariga kelganda, ularning barchasi haq va to'g'ri. Faqat ayrimlari borki, ularni diniy bilimlarga qo'shish munosib emas. Shundan kelib chiqib, shariat ilmlari ham to'g'ri va noto'g'ri qismlarga bo'lingan. To'g'ri diniy ilmlar to'rt bobda qarab chiqilgan: asosiy va ikkinchi darajali ruknlar, faraz va qo'shimchalar bayon qilingan. Asosiy rukn (asl)lar Qur'on, Sunnat va ijmo', shuningdek, sahobalar rivoyati ishlaridan foydalanishdir. Ikkinchi darajali rukn(asl)lar bular asosiy asllarning idrok etilishidir. Shunga e'tiborni qaratish o'rinliki, G'azzoliy fikri bo'yicha, ikkinchi darajali asllarni anglash uchun matnning ko'rinishining o'zi kifoya emas, aqlni albatta yordamga chaqirish zarur. Uning

nazarida shariat soʻzi oʻzining lugʻaviy maʼnosidan koʻra kengroq maʼnoga ega. Ikkinchi darajali asllar ikki furuʼ(shoxcha)ga boʻlinadi. Fiqh shugʻullanadigan birinchi shoxcha dunyoviy ishlarni ado etishga yoʻnaltirilgan. Demak, faqihlar dunyoviy olimlardirlar. Ikkinchi shoxcha esa uxraviy olamga yoʻnaltirilgan boʻlib, u qalb olami haqidagi va munosib yoki nomunosib axloq hamda odatlar olami haqidagilarni qamrab oladi. Shunday qilib, Gʻazzoliy fiqhni dunyoviy ilm deb hisoblab, deydi: «Insonning avvali tuproq, uning yakuniy oxiri esa - yo jannat yoki doʻzax. Dunyo bu avval bilan oxir oʻrtasidagi koʻprik. Agar odamlar ziddiyat va dushmanlik paydo boʻlmaganda edi, faqihlarga ehtiyoj qolmagan boʻlardir. Ammo bu dunyo odamlarining hirsu hasadi birbirlariga nisbatan adovat qoʻzhatadi, natijada, insoniyat jamiyati hukmdorlar va shohlarga ehtiyoj sezadi, ularga esa, oʻz navbatida qonunlar kerak boʻladi, chunki ular qonunlarga asoslanib, odamlarni boshqarishlari lozim. Voqean ham jamiyat faqihlarga va fiqhga shuning uchun ehtiyoj sezadiki, faqihlar siyosat qonunlarini biladilar. Shunday qilib, «faqih siyosiy qonunlarni, xirslariga qul boʻlib, oʻzaro olishadigan odamlar ustidan hukm chiqarish ishlarini yaxshi biladigan kishidir. Shuning uchun ham faqih bu shohning ustoz va maʼnaviy rahbaridir. U shohning adolat yuzasidan odamlarni boshqarishi, ularni himoya qilishi va ular ishlarida tartib oʻrnatishini kuzatib turishi kerak. Tabiiyki, faqih ham din bilan bogʻlangan, ammo toʻgʻridan toʻgʻri emas, balki dunyo orqali bogʻlangandir. Albatta, shuni bilish zarurki, dunyo oxir uchun urugʻ ekiladigan maydondir. Va diniy ishlar dunyoda oxiriga yetadi».[2.-B3]

Gʻazzoliy boshqa soʻfiylar kabi, qalbni Haqiqatga eltuvchi eng yaqin va toʻgʻri yoʻl deb hisoblaydi. Qalb uning fikricha, ruhiyat olamining eng oliy koʻrinishi boʻlib, tuygʻu va nafs unga tobedir, aql esa uning bir boʻlagi hisoblanadi. Qalbni hech qachon aql bilan qarama-qarshi qoʻyib boʻlmaydi. Qalbning eng oliy darajasi, Gʻazzoliyning fikricha, paygʻambarlarda boʻladi, undan soʻng avliyolar, hakimlar va olimlarning qalbi har biri bu yoʻlda erishgan mavqesiga qarab tabaqalanadi. Haqiqat yoʻlidagi har bir solik oʻzining boshidan oʻtgan ruhoni holatlardan xabari bor va oldidagi yoʻlning nihoyasida uni nima kutmoqligidan bexabar boʻladi. Shuning uchun, paygʻambarlarning holini avliyolar bilmaydi, avliyolar qalbidan hakimlar bexabar. Bu

go‘dak, yigit va keksa odamning holiga o‘xshash bir ko‘rinishdir. Yosh bola yigitning tuyg‘ularidan bexabar bo‘ladi, chunki u hali balog‘at yoshiga yetmagan. Yigit kishi esa, go‘dakning holi va tuyg‘ularidan xabardor bo‘lgani bilan, barkamol insonning fikr-o‘ylari unga begona bo‘ladi, chunki u bu umr bosqichini bosib o‘tmagan.

G‘azzoliy qalbni oynaga o‘xshatadi. Bu oyna kibr, harislik, g‘azab, nafrat, baxillik kabi zang keltiruvchi xislatlardan poklagandan so‘ng axloq suvi bilan yuvib, sayqallangan qallda ilohiy haqiqat tazohir etadi.[2.-B.5]

Xulosa qilib aytganda, o‘zining benazir mehnatlari bilan butun dunyoda "Hujjatul Islom" unvoni bilan ulug‘lanib kelayotgan Imom Abu Homid G‘azzoliy asarlari islom dini mohiyatini barcha nozik jihatlarigacha e‘tiborga olib, teran tafakkur va idrok etish, tushunish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Abu Homid G‘azzoliyning asarlarida e‘tiqod masalalarga alohida munosabat bildirilib, mehr-muhabbat bilan yo‘g‘rilgan sifatlar, shubhasiz, talabalarda insoniy sifatning shakllanishida va rivojida muhim rol o‘ynab, ulug‘ maqsad hamda vazifalarini amalga oshirishda manba bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/imom-abu-homid-g-azzoliyning-ma-naviy-axloqiy-qarashlari/viewer>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/imom-g-azzoliy-tasavvuf-nazariyotchisi/viewer>
3. Abu Homid G‘azzoliy «AYYUHAL VALAD» ASARINING O‘ZBEK TILIDAGI TARJIMASI (qayta nashr) T.: Movarounnahr 2005 yil.
4. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliy „IHYOU ULUMID-DIN" (Din ilmlarini jonlantirish) Ilm kitobi Birinchi kitob. T.: <<Movarounnahr>> 2005 yil.
5. Ortiqov O. R. GLOBALLASHUV JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI //Scientific progress. 2021. T. 1. - №. 5. - C. 160-165.
6. Ortiqov O. R. MA‘NAVIY-MA‘RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

(OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум.2022. №. 3-2 (94). - С. 1130-1135.

7. Ortikov O. R. MUHAMMAD ABU HOMID IMOM G'AZZOLIY ASARLARIDA ILM-MA'RIFAT VA AXLOQ MASALALARI //MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, -С. 117-122

8. Ortiqov O. R. TALABALAR MA'NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA "QOBUSNOMA" ASARIDAN FOYDALANISH //Conferencea. 2023. С. 1-5.

9. Imom G'azzoliy. Kimiyoi saodat. -Т.: Yangi asr avlodi, 2005.

10. Sulaymonov, J. (2021) ABDURAHMON IBN XALDUNNING TAMADDUN TARAQQIYOTI HAQIDAGI QARASHLARIDA JAMIYAT TAHLILI//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.

11. Sulaymonov, J. Karimov, N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering(IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

12. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA "ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(6), 9-14.